

Toshniyozov Shoxrux Shuhrat o'g'li

TIPU 4-bosqich talabasi

+998942871050

Ilmiy rahbar: Xalikova Sh.T-TIPU dotsenti

xalikovashakhodat@gmail.com

Annotatsiya: *ushbu maqolada oilada tarbiyaning o'рни va ahamiyati tahlil qilinadi. Tarbiya insonning ma'naviy, axloqiy va ijtimoiy kamolotida asosiy omil ekanligi yoritiladi. Maqolada inson tarbiyasining uzluksiz jarayon ekanligi, uni nafas olishga qiyoslash orqali tarbiyaning zaruriyati ilmiy-nazariy asosda izohlanadi.*

Kalit so'zlar: *oila, tarbiya, inson kamoloti, ma'naviyat, axloq, shaxs shakllanishi, ta'lim.*

Abstract: *this article analyzes the role and significance of education in human life. It highlights that education is a key factor in the moral, spiritual, and social development of a person. The article explains the necessity of education by comparing it to the process of breathing, emphasizing that upbringing is a continuous and vital part of human existence.*

Keywords: *education, human perfection, spirituality, morality, personality formation, learning.*

Аннотация: *в данной статье анализируется роль и значение воспитания в жизни человека. Подчеркивается, что воспитание является основным фактором духовного, нравственного и социального совершенствования личности. В статье научно-теоретически обосновывается необходимость воспитания, сравнивая его с процессом дыхания как непрерывным и жизненно важным явлением.*

Ключевые слова: *воспитание, совершенствование человека, духовность, нравственность, формирование личности, образование.*

O'zbekiston o'z mustaqil siyosatiga ega bo'lgan mamlakat sifatida jahon hamjamiyati bilan har tomonlama manfaatli hamkorlikni yo'lga qo'ygan, xususan, oila va xotin-qizlarning haq-huquqlarini himoya qilishga qaratilgan qator nufuzli tashkilotlar bilan hamkorlikda yurtimizda gender tenglikni kafolatlagan davlatlar sirasiga kiradi. Jumladan, O'zbekiston 1995 yildayoq "Xotin-qizlar kamsitilishining barcha ko'rinishlari oldini olish bo'yicha CEDAW Konvensiya"sini ratifikatsiya qilgan va bu boradagi xalqaro talablarni, ushbu yo'nalishda Milliy Harakat dasturini bosqichma-bosqich bajarib kelayotgan mamlakatdir. Jamiyat taraqqiyotining bugungi holati hozirgi zamon oilasi oldiga o'ziga xos yangi ijtimoiy vazifalarni ham yuklaydiki, bularning barchasi hozirgi yoshlarimizni oilaviy hayotga maxsus tayyorlash ,bola tarbiyasiga alohida e'tibor qaratish hayotiy zaruriyat hisoblanadi. Shuning uchun ham

so'nggi 15-20 yil davomida dunyoning barcha rivojlangan mamlakatlarida, jumladan, bizning respublikamizda oila masalalariga, barkamol insonni tarbiyalash masalalariga alohida e'tibor berilmoqda. Umuman insoniyat jamiyati tobora taraqqiy etib boraverar ekan, oila masalalarining dolzarbligi ham shunga mos ravishda ortib boraveradi va oilaga bo'lgan e'tibor ham kecha va bugunga qaraganda ertaga yanada yuqoriroq bo'ladi. Chunki oila jamiyatning kichik bir ko'rinishi bo'lib, u qancha inoq, ahil va mustaxkam bo'lsa, jamiyat ham shunchalik qudratli bo'ladi. Mazkur omillar oliy ta'lim tizimida ham yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash zaruratini keltirib chiqardi. Oilaviy tarbiya insoniyat tarixida eng qadimiy va eng zarur jarayonlardan biridir. Har bir jamiyat o'z kelajagini yosh avlodning qanday tarbiya olganiga qarab baholaydi. Tarbiya — bu faqat bilim berish emas, balki insonda ezgulik, mehr-shafqat, mehnatsevarlik, halollik, mas'uliyat kabi fazilatlarni shakllantirishdir. Inson o'zining ilk tarbiyaviy saboqlarini oilada oladi va bir umrga yodida saqlashga intiladi.

Komil insonni tarbiyalash ongli jamiyat tuzishning garovidir. 20-asrning atoqli adiblaridan biri Abdulla Avloniy tarbiyani inson hayotining eng muhim masalasi deb bilgan. Unga ko'ra, insonning ma'naviy kamoloti, jamiyatning taraqqiyoti, millatning kelajagi to'g'ridan-to'g'ri tarbiyaga bog'liq. Tarbiya nafaqat maktabda, balki oilada, jamiyatda ham uzluksiz jarayon bo'lishi kerak. *"Inson o'z tabiatiga ko'ra jamiyatda yashashga muhtojdir. Agar unga yaxshi tarbiya berilsa, u komil inson bo'ladi."*

Forobiy fikricha, insonning tabiatida ijtimoiylik bor — u jamiyatda yashash orqali kamol topadi. Ammo bu jarayonning asosi — tarbiya. Yaxshi tarbiya insonni komillikka eltadi, yomon tarbiya esa jamiyatda buzg'unchilik keltirib chiqaradi.

Hazrat Navoiy tarbiyani inson kamolotining asosi deb bilgan. Uningcha, ilmsiz odam to'liq inson bo'la olmaydi, lekin ilm tarbiya bilan uyg'unlashgandagina haqiqiy komillikka erishish mumkin. U "Mahbub ul-qulub" va "Hayrat ul-abror" asarlarida insonni axloqan tozalikka chaqiradi.

Ahmad Donish fikricha, har bir millatning kelajagi yoshlarning qanday tarbiya olganiga bog'liq. U tarbiyani ilm bilan bog'lab ko'radi va bilimli, tarbiyali insonni jamiyat taraqqiyotining poydevori deb hisoblaydi.

Xitoy mutafakkiri Konfutsiy tarbiyani insoniy jamiyatning ustun qadriyati sifatida baholagan. U avvalo o'zini tarbiya qilish, ya'ni ichki axloqni tozalash orqali tashqi muhitni tuzatish mumkinligini ta'kidlaydi.

Rumiy tarbiyani inson ruhining yo'lini yorituvchi kuch deb bilgan. Uningcha, haqiqiy tarbiya insonni Allohga yaqinlashtiradi, yomonliklardan uzoqlashtiradi.

"Bir kishi — donishmand huzuriga kelib: 'Farzandimga necha yoshdan tarbiya berish kerak?' deb so'ragan... Donishmand: homila necha oylik ekanini so'rabdi, homila 3 oylik bo'lganini aytibdi va donishmant esa 3 oyga kechga qolibsiz debdi."

Ba'zilar bolasi hali ikki-uch yoshga kirmay turib, uning tarbiyasi "nobop"ligidan shikoyat qilishni boshlab yuborishadi. Norasida go'dakni xuddi kattalardan talab

qilinadigan “qolip”larga solishga, uning odob-axloqini “o’nglash” harakatlariga kirishiladi. Bu ham xato yo’l. Chunki hali suyagi qotmagan, yaxshi va yomon nimaligini anglamagan yosh bolani hadeb tergayverish, uni turli qoliplarga solishga urinish, kuchi va iqtidori yetmaydigan mashg’ulotlarga majburlash irodasini sindirishi, ruhiga salbiy ta’sir ko’rsatishi, keyinchalik hamma narsaga befarq va loqayd qaraydigan qilib qo’yishi mumkin.

Buyuk vatandoshimiz shayxu rais Abu Ali ibn Sino yosh avlod tarbiyasining ibtidosi qanday va nimalar bilan bo’lishi haqida quyidagilarni aytgan edi: «Yosh bola boshlang’ich ta’lim va tilga doir qoidalarni yod olganidan keyin u mashg’ul bo’lishi mumkin bo’lgan kasb-hunar va san’atga moyilligiga qarab, uni shunga yo’llaymiz. Agar u kotiblikni xohlasa, til, xat yozish, nutq so’zlash va odamlar bilan muomala qilish kabilarga dalolat qilamiz. Albatta, bu o’rinda, bolaning mayli ahamiyatga ega»

Mutaxassislar tavsiyasiga ko’ra, bola maktabga borgunicha uni podshoh tuyib muomala qilinadi, ya’ni risoladagi barcha iltimoslari so’zsiz bajariladi, sho’xlik va erkaliklardan qaytarilmaydi. Shundan so’ng unga asta-sekin tushuntirish, kattalarning o’zi ibrat bo’lishi orqali tarbiya beriladi.

Tarbiya bir necha tomondan olib boriladi. Bola aqlan rivojlanishi uchun unga turli kitoblar o’qib beriladi, rivoyat va ibratli hikoyatlar so’zlanadi yoki aql-zakovatini o’stiradigan o’yinlar, mashg’ulotlarga jalb qilinadi. Ruhiy tarbiyasini yaxshilash uchun hayot va o’lim, yaxshilik va yomonlik, axloq va odob kabi boqiy mavzularda sodda, bola ruhiyatiga mos suhbat va tushuntirish olib boriladi. Jismoniy tarbiya berish uchun esa biror foydali mehnatga jalb qilish, suzish, merganlik, chavandozlik kabi mashg’ulotlarni o’rgatish mumkin.

Bolalarga yoshligidan boshlab Qur’oni karim qissalaridan, payg’ambarlarning hayoti haqida naql qiluvchi turli rivoyatlardan, xalq ertaklari va dostonlaridan, topishmoqlar, maqol va matallardan o’qib berish, so’zlash yoki ularning o’zlariga o’qitish ham kerak. Bu bilan bolalarning zehni o’sadi, fikri kengayadi, dunyoqarashi boyiydi, xotirasi kuchayadi. Eng asosiysi, bola eshitganlaridan ibratlanib, yaxshi odamlarga ergashishga intiladi, ularning xulqu odobidan bahramand bo’ladi.

O’g’il-qizlarining zehni o’sishini, aql-idrokli, fikrlovchi bo’lib ulg’ayishini istagan ota-onalar ularga kichikligidan turli ibratli hikoyalarni, ulug’larimizning hayot yo’llari va fazilatlarini haqidagi rivoyatlarni, ramziy ma’nodagi yaxshilikka, chiroyli axloq va odobga chorlovchi ertaklarni so’zlab berishsa, ular ma’naviyatini yuksaltirishda katta tarbiyaviy ish qilgan bo’lishadi.

Xulosa: Oilaviy tarbiyani mustahkamlash: ota-onalarning psixologik, pedagogik bilimlarini oshirish, ularni farzand tarbiyasida faol ishtirok etishga jalb etish samaradorligini oshirish. Yosh ota-onalarga xalqimizning bola tarbiyasiga oid hayotiy tajribasini chuqur o’rgatish zarur. Ta’lim muassasalarida ma’naviy tarbiyaga e’tibor

kuchaytirish: dars jarayonlarida faqat bilim emas, balki axloqiy, ma'naviy qadriyatlarni singdiruvchi integratsion yondashuvlar joriy etish.

Ommaviy axborot vositalarining tarbiyaviy rolini oshirish: televizion dasturlar, internet kontentlar, ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlar ongiga ijobiy g'oyalarni singdiruvchi loyihalar yaratish. Yoshlar bilan individual tarbiyaviy ishlar olib borish: har bir o'quvchi yoki talabaning shaxsiy qiziqishlari, ijtimoiy muhiti va psixologik holatini inobatga olib, individual yondashuv asosida tarbiyaviy faoliyatni yo'lga qo'yish. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlashni istar edikki, oilalarimizda bola tarbiyasiga jiddiy e'tibor berilsa ta'lim muassasalarida hozirgi kunda yuzaga kelayotgan muammolar ancha kamaygan bo'lar edi. Zero, inson xulqi, odobi bilan go'zaldir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qur'oni Karim. – Toshkent: TDIU nashriyoti, 2019.
2. G'azzoliy A. Ihyou ulum ad-din (Din ilmlarini tiriltirish). – Qohira, 1997.
3. Oilada farzand tarbiyasi: bola boshidan... – Muslim.uz sayti. – Elektron manba: <https://old.muslim.uz> (murojaat sanasi: 24.10.2025).
4. Navoiy A. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983. – 352 b.